

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MAZA-TA’M BILDIRUVCHI SIFATLAR LINGVOPOETIKASI

Nishonova Adiba Adhamjon qizi

Namangan davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Email: nishonovaadiba@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyatida maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar lingvopoetikasi ko‘rib chiqqan holda tahlil qilingan. Maqolada bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida uchrayotgan lingvopoetika tushunchasining mohiyati xususida so‘z boradi. O‘zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar va qilingan ilmiy ishlar haqida fikr yuritiladi. Ushbu ilmiy maqolada o‘zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tushunchasining mohiyati xususida so‘z boradi. O‘zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar va qilingan ilmiy ishlar va zamonaviy o‘zbek she‘riyatida rang-tus bildiruvchi sifatlar haqida fikr yuritiladi. [1]

Kalit so‘zlar: lingvopoetika tushunchasi, lingvopoetikaning o‘rganish ob‘ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, lingvopoetikaga oid tadqiqotlar tarixi va tahlil turlari ko‘rsatilgan, kognitiv tilshunoslik, sifatlarni lingvopoetik tahlili.

LINGUISTICS OF COLOR-DENOTING ADJECTIVES IN MODERN UZBEK POETRY

ABSTARCT

In this article, the linguopoetics of taste adjectives in modern Uzbek poetry is analyzed. The article talks about the essence of the concept of linguopoetics found in Uzbek linguistics today. The evaluation of linguopoetics in Uzbek and world linguistics, different approaches to this phenomenon and scientific works are discussed. This scientific article talks about the essence of the concept of theoretical issues of linguopoetics in Uzbek and world linguistics. The evaluation of linguopoetics in Uzbek and world linguistics, various approaches to this phenomenon, scientific works, and qualities that give color in modern Uzbek poetry are discussed. [1]

Keywords: the concept of linguopoetics, the study object and subject of linguopoetics, goals and tasks, the history of researches related to linguopoetics and types of analysis are shown, cognitive linguistics, linguopoetic analysis of adjectives.

ЛИНГВИСТИКА ЦВЕТООБОЗНАЧАЮЩИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется лингвопоэтика вкуса прилагательных в современной узбекской поэзии. В статье говорится о сущности понятия лингвопоэтики, встречающегося в современном узбекском языкознании. Обсуждаются оценки лингвопоэтики в узбекском и мировом языкознании, различные подходы к этому явлению и научные труды. В данной научной статье говорится о сущности концепции теоретических вопросов лингвопоэтики в узбекском и мировом языкознании. Обсуждаются оценка лингвопоэтики в узбекском и мировом языкознании, различные подходы к этому явлению, научные труды, качества, придающие окраску современной узбекской поэзии. [1]

Ключевые слова: понятие лингвопоэтики, объект и предмет изучения лингвопоэтики, цели и задачи, показаны история исследований лингвопоэтики и виды анализа, когнитивная лингвистика, лингвопоэтический анализ прилагательных.

KIRISH

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda barcha sohalar qatori tilshunoslikka ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Badiiy adabiyot tilshunoslik bilan chambarchas bog'liq ekan, ular kesishuvdagi lingvopoetika ham e'tibortalab sohalardan biridir. Tilni badiiy tafakkur mahsuli sifatida talqin etish unga har tomonlama chuqur yondashishni taqazo etadi. Xuddi shuningdek, lingvopoetika ham tafakkur mahsuli bo'lmish badiiy asarlarning til xususiyatlarini o'rganibgina qilmay, o'quvchiga ana shu badiiy asarning asl mazmunini tushuntirishga, yozuvchining asl maqsadini yetkazib berishga yordam beradi. Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi, badiiy so'zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o'rganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy nuqtai nazardan tushunish uchun asos bo'ldi. Jumladan, G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba ishlari o'rganildi, muhim ilmiy xulosalaridan foydalanildi. A.Xolodovichning «Adabiy til uslubshunosligi», «Poetikada lisoniy usul» asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalarida, fransuz tilshunoslari D.Delas va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo'yicha yangi qo'llanmalarida, Ye.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida

lingvopoetikaning filologiya sohasida alohida fan sifatida o'rganilishi haqida turli xil qarashlar bayon qilingan. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi bilan shug'ullangan olimlardan biri A.Lipgart hisoblanadi. Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, tanqidiy vazifalari, muammolari bilan farqlanadi. Asosan adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik xususiyatlar nuqtai nazaridan kuzatib, o'rganib borish, bu yo'nalishdagi talqin, tahlil, baholashni izchil yo'lga qo'yish o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Maza-ta'm bildiruvchi sifatalarga shirin, achchiq, nodon, taxir, sho'r va boshqa sifatlar kiradi. Bu sifatlar o'z leksik ma'nosidan tashqari ko'chma ma'no ham ifodalaydi. Masalan: shirin bola, shirin turmush, shirin orzu, achchiq haqiqat, sho'r peshona kabi. Misollarni kuzatamiz: Achchiq so'zlaringni etdim-ku hazm. (Mirtemir) Mazkur misoldagi ko'chma ma'no ifodasi uchun ishlatilgan shirin bola, achchiq so'z kabilar obrazli ifoda uchun qo'llanilgan. Shirin va achchiq sifati diqqatni predmetning muayyan belgisiga tortish, belgini ta'kidlash, kuchaytirishning lingvopoetik usuli sifatida nutqda xilma-xil konnotativ ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Lekin bu so'zlar gapdan nutqning boshqa elementlaridan ajralgan holda hech qanday uslubiy bo'yoqqa ega bo'lmaydi.

O'rgimchak to'rini daryoga soldim,
Tillo baliq tutib ziyoga soldim.
O'zimni jonimni baloga soldim,
Shu shirin jonimni saqlagim keldi,
Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi.
(Iqbol Mirzo)

Ushbu she'riy parchada shirin so'zi ko'chma nutqiy ma'no asosida konnatatsiyani yuzaga keltirgan, bunda shirin so'zi "kishi uchun aziz bo'lgan, yo'qotishdan qo'rqadigan predmet belgisi" ma'no muqobilini bildirgan.

Maza-ta'm sifatalari tarkibidagi shirin va achchiq so'zlai nisbatan keng qo'llaniladi. Shu bilan birga ma'no doirasining kengligi bilan ham xarakterlanadi. O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'zlarning quyidagi ma'nolari sanab o'tilgan:

1. Shirasi o'tkir shirali. Shirin ichimlik.

Shirin mevalarga o'rgangan og'izlariga bu yerning nordon ne'matlari yoqmadi.

Oybek, Quyosh qoraymas

2. Ta'mi yoqimli, mazali, lazzatli.

Shirin sho'rva

- Albatta, albatta, - dedi Sulaymonov jiddiy qiyofada, - masalan, baliq – ko'p yaxshi narsa, qovurilsa, qanday shirin bo'ladi!

A. Qahhor, Ikki yorti - bir butun

3. ko'chma. Kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan, yoqimli, yoqimtoy.

Shirin xayollar. Shirin tush ko'rmoq. Shirin muomala. Shirin so'z shakardan shirin.

Muharram shirin tabassum bilan kuldi-da, bejirim labining ikki burchagini nozik to'r tutilgan dastro'molchasi bilan artib qo'ydi.

Yulduzlar pirpiraydi – gullab yuborar terak,

Oy yurar ko'chalarda, kengayadi xonlar.

Havolarning haqqiga qoldirar shirin tilak,

Dili javohir to'la yalangoyoq bolalar.

(Iqbol Mirzo)

4. Ahil, totuv

Shirin oila.

Dunyoda bitsin urush,

Yer yuzi ko'rmasin dog',

Gullasin shirin turmush,

Tinchlik bo'lsin hamma yoq.

(Qodir Muhammadiy)

Shuningdek shirin so'zi bilan bog'liq joni shirin iborasi ham mavjud. U o'zini nihoyatda ayaydigan, og'riqqa, og'ir ishga tobi yo'q kabi ma'nolarni bildiradi.

O'rgimchak to'rini daryoga soldim,

Tillo baliq tutib ziyoga soldim.

O'zimni jonimni baloga soldim,

Shu shirin jonimni saqlagim keldi,

Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi.

(Iqbol Mirzo)

Endi esa achchiq so'ziga to'xtalamiz. Achchiq so'zi o'zbek tilinig izohli lug'atida quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Ta'mi og'izni achitadigan, lovullatadigan.

Achchiq garmdori.

Farg'ona vodiysidan boshqa joylarga ekiladigan turp negadir achchiq ta'm, taxir mazaga ega bo'ladi.

(K. Mahmudov, Qiziqarli pazandachilik)

2. Nordon, tishni qamashtiradigan.

Achchiq donali anor.

Otasi achchiq dona yesa, o'g'lining tishi qamashadi.

Maqol

3. Sezgi a'zolariga qattiq ta'sir qiladigan, o'yuvchi.

Achchiq gaz. Achchiq tamaki. Achchiq hid.

Jiqqa ho'l o'tin yolg'iz pirs-pirs qilib, achchiq, zahar tutun buriqtiradi.

Oybek, Tanlangan asarlar

4. Jazillatadigan, jonni achitadigan.

Dalalarda kech kuzning achchiq shamoli esa boshladi.

Said Ahmad, Qadrdon dalalar

5. ko'chma. Kishiga qattiq tegadigan, ko'ngilga ozor beradigan; qattiq, noxush.

Achchiq istehzo, Achchiq tanqid, Achchiq haqiqat.

U bu achchiq ta'nalarni eshitmaganday... sur bo'lib turaradi.

Mirmuhsin, Umid

6. ko'chma. G'am-iztirobli, alamli.

Biz uchrashib, ajralishgan bir daqiqini –

O'tmish qori ko'mib ketdi, bo'lmaydi kurab.

Faqat xotirga tushganda titraydi tanim,

Ko'zlarimdan achchiq yoshlar ketar tirqirab.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, shirin sifati "ahil, totuv, farovon" kabi konnotativ ma'nolarni ifodsa etishi mumkin:

Bu kimningdir shirin hayoti,

Hayron, mag'lub, bu koinot.

(o. Muxtor)

Quyidagi misralarda shirin leksemasining oksimaron san'atini yuzaga keltirishiga guvoh bo'lamiz. Oksimoron – ikki qarama qarshi tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning yonma yon kelishidir.

Meni shirin og'u lazzati qiynar

(A. Oripov)

Ushbu misradagi shirin so'zi o'zi bilan yondosh kelgan og'uga nisbatan qarshilantirish hosil qilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, maza-ta'm sifatlari ham turli xil badiiy-ekspressiv jozibadorlik qirralarini namoyon etadi. Ayniqsa, ular orasida shirin va achchiq so'zlari ma'no ifodasining ko'pligi bilan ajralib turadi. Taxir, chuchuk, nordon kabi leksemalar esa shirin va achchiq sifatlari orasidagi belgi ifodalovchi birliklardir. Shuningdek maza-ta'm ifodalovchi birliklar bilan ko'plab maqol va iboralar ham shakllangan:

Mehnatning noni – shirin,

Yalqovning joni – shirin.

Achchiq savol berib,

Shirin javob kutma.

Bemorga shirin soʻz kerak,
Aqlsizga – koʻz.

Shirin soʻz shakardan shirin.

Shirin soʻz – qaymoqli ayron,
Achchiq soʻz – boʻyniga arqon.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, rang-tus bildiruvchi soʻzlar sifatlarning oz qismini tashkil etsa-da, lekin ularning badiiy adabiyotda qoʻllanishi salmoqlidir. Shuningdek ular turli xil maʼno qirralariga egaligi, uslubiy va tasviriy semalarining koʻpligi bilan ham boshqa sifatlardan ajralib turadi. Maza-taʼm bildiruvchi sifatlarning oʻz maʼno qirralari bilan badiiy adabiyotda, ayniqsa sheʼriy asarlarda badiiy-ekspressiv boʻyoqdorlikni oshirishda muhim oʻrin tutadi. Shunday ekan ularning koʻlami ozligiga qaramay, alohida tadqiqotni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. <file:///C:/Users/User/Downloads/zamonaviy-tilshunoslikda-lingvopoetika-tadqiqi.pdf>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-tilshunoslikda-lingvopoetika-tadqiqi>
3. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-69244-1.html>
4. https://tsuull.uz/sites/default/files/kukon_anzhuman_tilshunoslik.pdf